

- faktoring xizmatlarini rivojlantirish;

Mazkur chora-tadbirlar amalga oshirilgan taqdirda kichik biznes vakillarining moliyaviy manbalarga bo'lgan talabi yanada tezkor va qulay tarzda qondiriladi. Bu esa ularning aylanma mablag' bilan ta'minlanishini yaxshilab, transport-logistika jarayonlarini barqaror tashkil etish imkoniyatini kengaytiradi. Natijada kichik biznes subyektlarining faoliyati samaradorligi oshib, ularning iqtisodiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda an'anaviy bank kreditlari asosiy moliyalashtirish manbai bo'lib qolayotgan bo'lsada, lizing, faktoring, fintech va boshqa alternativ moliya instrumentlari logistika samaradorligini oshirishda muhim qo'shimcha mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Alternativ moliya vositalarining keng qo'llanilishi aylanma mablag' barqarorligini ta'minlash, yetkazib berish uzluksizligini ta'minlash va natijada kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, alternativ moliya mexanizmlarini qo'llab-quvvatlash kichik biznesda transport-logistika tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. Lambert D. M. *Supply Chain Management: Processes, Partnerships, Performance*, 2019, 45–47-betlar.
2. Claessens S., Frost J., Turner G., Zhu F. *Fintech credit markets around the world*, *BIS Quarterly Review*, 2018, 30–31-betlar.
3. Sergeev V. I. *Logistika*, 2018, 52–55-betlar.
4. *Leaseurope. The role of leasing in SME development*, 2023, 2-bet.
5. *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Bank kredit portfelda statistikasi (2021–2025 yillar) muallif hisob-kitoblari.*

## **TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYA QILISHDA RAQAMLASHTIRISH VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TUTGAN O'RNI**

***Sherbekova Kamola Norbekovna***

*Guliston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Raqamli banklar va an'anaviy banklar o'rtasidagi quyidagi farqlarni sanab o'tish mumkin. Raqamli banklarning asosiy xususiyatlari: o'zining filiallar tarmog'ini kengaytirishga ehtiyojning yo'qligi; bank va iste'molchi o'rtasida 100% masofaviy-onlayn aloqalar o'rnatilganligi; sifatli va qulay mobil ilovaning mavjudligi; omonat (depozit) va kreditlar bo'yicha jozibador foiz stavkalarining shartlarning mavjudligi; sifatli, qulay va uzluksiz ishlovchi "iste'molchilarni qo'llab-quvvatlash markazlari"ning mavjudligi.

Yuqoridagi xususiyatlar tranzaksiyalar va xizmatlar tannarxining tushishi bilan bir paytda ular hajmining oshishiga olib keladi. Raqamli bank xarajatlari ichida asosiy o'rinni dasturiy ta'minotning uzluksiz ishlashi va ularni modernizatsiya qilish uchun qilingan xarajatlar egallaydi.

An'anaviy xususi va davlat banklarining asosiy xususiyatlari: filial va bank xizmatlari markazlarining barcha tuman, shahar va viloyatlarda mavjudligi, xizmat sifatiga yetarli e'tibor berilmasligi; bank va iste'molchi o'rtasidagi muloqotning uzluksiz yo'lga qo'yilmaganligi va sifatining pastligi; mobil ilovaning "nomiga" mavjudligi, texnik nosozliklar tufayli bir plastik kartadan ikkinchisiga pul o'tkazmalari va kommunal to'lovlarni amalga oshirishda surunkali uzilishlar ro'y berib turishi; omonat (depozit) foiz stavkalarining pastligi, kredit ajratish shartlarining shaffof emasligi; "iste'molchilarni qo'llab-quvvatlash markazlari" ish faoliyatining sust yo'lga qo'yilganligi, markaz xodimlarining bank xizmati va mahsulotlari to'g'risida yetarli ma'lumotga ega emasligi sababli, savoliga qoniqarli javob olishi uchun iste'molchining bank tarkibiy bo'linmalarining bir necha xodimlari bilan gaplashib chiqish holatlarining mavjudligi [1].

Raqamlashtirilgan hujjat almashinuviga o'tish quyidagilarga olib keladi: hujjatlar yo'qolmaydi, xodim kerakli fayllarni ish stoli va hujjatlar javoni va turli ma'lumotlar bazasidan qidirmaydi; raqamlashtirilgan platforma turli ma'lumotlar bazasi, jumladan, davlat statistika qo'mitasi, davlat personallashtirish markazi, Pensiya jamg'armasi, kredit axborotlari milliy markazining elektron ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilinadi; hujjatlar yagona ma'lumotlar bazasida saqlanadi, foydalanuvchi xato qilmaydi, chunki u tekst bilan ishlamaydi, balki anketadagi berilgan qisqa savollarga javob beradi, xolos. Hujjat turli integratsiyalashgan reestrldagi ma'lumotlar asosida avtomat tarzda shakllanadi; hujjatlarda yagona korporativ uslub (shrift, abzats, logotip, rang) saqlanib qoladi; xodimlar yagona platformada faoliyat ko'rsatadi, ya'ni bank rahbarlari o'z qo'l ostidagilarga tegishli topshiriq va ko'rsatmalarni shu platformada berib boradi.

Bank faoliyatini raqamlashtirishda matematik modellashtirish va informatikadan o'rinli foydalanilsa, juda murakkab jarayonlarning ham matematik modelini yaratish mumkin bo'ladi. Shuningdek, matematik modellar raqamlashtirish jarayonida juda qo'l kelib, turli bank operatsiyalarini tez va ishonchli, shuningdek, kamroq xarajatlar bilan raqamlashtirish imkonini beradi [4].

Bank faoliyatini raqamlashtirish salbiy oqibatlariga ham to'xtalib o'tish lozim, masalan, firibgarlar iste'molchilarni ishontirish, aldash yo'li bilan ularning hisob raqamlaridagi pullarni o'zlashtirib olish ehtimoli yuqori. Shuning uchun bank faoliyatini raqamlashtirish jarayonida iste'molchilarning hisob raqamlaridagi pullar xavfsizligini texnik jihatdan ta'minlash va iste'molchilarning kiber-xavfsizlik bo'yicha bilimlarini oshirib borishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Tijorat banklarida ekotizimni ikki xil usulda tashkillashtirish mumkin: birinchisi, iste'molchining barcha kundalik ehtiyojlarini bitta ilova yordamida qondiruvchi umumiy ekotizim (lifestyle banking), ikkinchisi, iste'molchining faqatgina bitta (uy-joy savdosi, ta'lim, tibbiyot va boshqa) sohadagi ehtiyojlarini qontiruvchi alohida ekotizim. Ekotizim yordamida bank va iste'molchi o'rtasida jismoniy kontaktsiz aloqa o'rnatilib, moliyaviy operatsiyalar (elektron tijorat) "inson omili" siz amalga oshiriladi [2].

Zamonaviy raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi nafaqat yuqori texnologiyali moliya kompaniyalarning banklarga moliya bozorida raqobatchi sifatida paydo bo'lishiga olib keladi, balki banklarni raqamli innovatsion texnologiyalarni yaratib, ularni bosqichma-bosqich IT-kompaniyalariga aylantirishga undaydi. Bularning barchasi bankning funksiyalari qatoriga texnologik funktsiya qo'shilganligini bildiradi.

### 1-jadval

#### Tijorat banklari faoliyatini transformatsiya qilishga raqamlashtirishning ta'siri

No	Yo'nalish	An'anaviy model	Raqamlashtirish ta'siri	Natija
1	Mijozlarga xizmat ko'rsatish	Filial va ofisga bog'liq xizmat	Onlayn banking, mobil ilovalar, chatbotlar	24/7 xizmat, mijozlar soni oshishi
2	To'lov tizimlari	Qog'oz hujjatlar, sekin tranzaksiyalar	Elektron to'lovlar, QR, contactless, fintech integratsiya	Tezkor va qulay hisob-kitob
3	Kreditlash jarayoni	Qo'lda tahlil, uzoq ko'rib chiqish	Skoring tizimi, sun'iy intellekt, big data	Kredit ajratish tezligi va aniqligi oshadi
4	Risklarni boshqarish	Cheklangan ma'lumotlar bazasi	Real vaqt monitoring, analitika	Risklarni aniq baholash
5	Xarajatlar boshqaruvi	Yuqori operatsion xarajatlar	Avtomatlashtirish, raqamli hujjat aylanishi	Xarajatlar kamayadi
6	Xavfsizlik	An'anaviy nazorat	Biometrik identifikatsiya, kiberxavfsizlik tizimlari	Firibgarlik kamayadi
7	Marketing	Ommaviy reklama	Ma'lumotlarga asoslangan (data-driven) marketing	Individual takliflar
8	Boshqaruv tizimi	Qog'oz hisobotlar	Raqamli boshqaruv paneli (dashboard), ERP tizimlari	Tezkor qaror qabul qilish
9	Raqobat muhiti	Faqat banklar o'rtasida	Fintech va raqamli platformalar bilan raqobat	Innovatsion mahsulotlar yaratiladi
10	Strategik rivojlanish	An'anaviy bank modeli	Ekotizim modeli, super-ilovalar	Bank xizmatlari diversifikatsiyasi

Tijorat banklari faoliyatini transformatsiya qilish jarayonida raqamlashtirish omili strategik ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy etish bank

operatsiyalarining tezligi, aniqligi va shaffoqligini oshirib, an'anaviy bank modelidan innovatsion va mijozga yo'naltirilgan modelga o'tishni ta'minlamoqda. Xususan, masofaviy xizmatlar, mobil banking, sun'iy intellekt asosidagi kredit skoring tizimlari hamda "big data" tahlili bank xizmatlari sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Natijada operatsion xarajatlar qisqaradi, xizmat ko'rsatish vaqti kamayadi va risklarni boshqarish samaradorligi ortadi.

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayoni bank tizimida raqobat muhitini kuchaytiradi. Fintech kompaniyalar va raqamli platformalar bilan hamkorlik yoki raqobat qilish zarurati banklardan innovatsion yondashuvni talab etadi. Bu esa banklarni ekotizim modeliga o'tishga, ya'ni moliyaviy va nomoliyaviy xizmatlarni yagona raqamli platformada birlashtirishga undaydi. Biroq, raqamlashtirish bilan bir qatorda kiberxavfsizlik tahdidlari, ma'lumotlarni himoya qilish va texnologik infratuzilmani modernizatsiya qilish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tijorat banklarining raqamli ekotizimini rivojlantirish maqsadida quyidagi ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi. Avvalo, banklarda yagona va uzoq muddatli raqamli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqish hamda uni biznes-model va risk-menejment tizimi bilan uyg'unlashtirish zarur. Shuningdek, kredit skoring, mijozlar xulq-atvorini tahlil qilish va firibgarlik holatlarini aniqlashda sun'iy intellekt hamda Big Data texnologiyalarini keng joriy etish maqsadga muvofiq. Bank infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xususan, bulutli texnologiyalar, API-platformalar va mikroxizmatlar arxitekturasini qo'llash orqali tizimning moslashuvchanligi va integratsiya imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi.

Shu bilan birga, kiberxavfsizlikni kuchaytirish, ko'p bosqichli autentifikatsiya va biometrik identifikatsiya usullarini joriy etish orqali axborot xavfsizligini ta'minlash lozim. Fintech kompaniyalari bilan hamkorlikni rivojlantirish va ochiq bank (Open Banking) konsepsiyasini amalga oshirish innovatsion mahsulotlar yaratishga xizmat qiladi. Bank xodimlarining raqamli kompetensiyalarini oshirish, doimiy malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, super-ilovalar va masofaviy xizmatlarni yagona platformaga birlashtirgan holda mijozga yo'naltirilgan raqamli xizmat muhitini shakllantirish banklarning raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. Nurjannah (2023), Nurjannah S. *Digital Transformation In The Banking Industry Challenges And Opportunities //International Journal of Accounting, Management and Economics*. – 2023. – T. 1. – №. 01.

2. King (2012), King Б. *Банк 2.0.: Как потребительское поведение и технологии изменят будущее финансовых услуг*. – Olympus Business, 2012.

3. Mahmudov (2020), Mahmudov S. B. *Investitsiyalarni moliyalashtirishda investitsion muhitini takomillashtirish //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*" ilmiy elektron jurnali. – 2020. – T. 4.

4. Aliqoriyev (2011), Aliqoriev O.F. Tijorat banklarida moliyaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo'nalishlari. iqt. fan. nom...diss. Avtoreferat – Toshkent, 2011. – 28b.

5. Temirov (2024), Temirov A. O'zbekiston respublikasi tijorat banklarida rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish masalalari //Iqtisodiyot va ta'lim Темиров А. //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2024. – Т. 25. – №. 1. – С. 64-73.

## **ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ФУҚАРОЛАРНИ ДАВЛАТ ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИ ТИЗИМИДА МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ХОРИЖ ТАЖРИБАЛАРИ (АҚШ, КАНАДА ВА ГЕРМАНИЯ МИСОЛИДА)**

**Ўринбоев Ғайратжон Ғофур ўғли**

*Тошкент Давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси*

**Аннотация:** Мақолада Ўзбекистон давлат пенсия таъминоти тизимида молиявий назоратни такомиллаштириш муаммоси халқаро тажриба асосида таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** давлат пенсия таъминоти, молиявий назорат, рискка асосланган аудит, рақамли мониторинг, маълумотлар интеграцияси.

Давлат пенсия таъминоти тизими ижтимоий ҳимоя архитектурасининг таянч бўғини бўлиб, унинг молиявий барқарорлиги ва тўловлар адолатлилиги бевосита назорат механизмларининг сифатига боғлиқ. Пенсия тизимида молиявий назорат фақатгина маблағлар сарфини текшириш билан чекланмайди, балки ҳуқуқий асосланганлик, ҳисоб-китобларнинг тўғрилиги, маълумотлар ишончлилиги, хавф-хатарларни олдиндан аниқлаш ва уларни камайтириш, шунингдек, хизмат кўрсатиш жараёнларида шаффофликни таъминлаш функцияларини ҳам қамраб олади. Ўзбекистон шароитида пенсия тўловларини тайинлаш ва молиялаштириш жараёнлари мураккаб маълумотлар оқимида таянади: иш стажи, иш ҳақи ва суғурта бадаллари, имтиёзлар, ногиронлик ёки боқувчисини йўқотганлик каби ҳолатлар бўйича ҳужжатлар, банк ва почта каналлари орқали тўловлар, шунингдек, бюджетаро трансфертлар. Ушбу занжирнинг ҳар бир бўғинида хатоликлар, такрорий тўловлар, маълумотларни сохталаштириш ёки кечиктириш каби рисклар юзага келиши мумкин. Шу сабабли молиявий назоратни замонавийлаштириш масаласи илмий ва амалий жиҳатдан долзарбдир.